

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОЖНЫХ СЛОВ

Maxmudova Dildora Baxtiyor qizi

University of business and science stjajor-o'qituvchisi (99 933 01 82)

Аннотация: В данной статье говорится о сложном слове и его видах, лингвокультурных особенностях. Кроме того, каждая информация поясняется более подробно с примерами. Мы знаем, что лингвокультурология – это отдельная научная область, изучающая язык и культуру одновременно, и это одна из быстро развивающихся научных областей сегодня. Прочитав статью, вы сможете получить много информации о лингвокультурализме.

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF COMPOUND WORDS

Abstract: This article talks about the compound word and its types, linguistic and cultural features. In addition, each information is explained in more detail with examples. We know that linguoculturalology is a separate scientific field that studies language and culture at the same time, and it is one of the rapidly developing scientific fields today. While reading the article, you can get a lot of information about linguoculturalism.

QO'SHMA SO'ZLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Bu maqolada qo'shma so'z va uning turlari, lingvomadaniy xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari har bir ma'lumot misollar bilan kengroq tushuntirib berilgan. Bilamizki, lingvokulturalogiya til va madaniyatni bir paytda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanalib, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan ilmiy sohalardan biri hisoblanadi. Maqolani o'qish davomida lingvokulturologiya haqida ham ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

KIRISH

Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy

aloqadorligini, uningshakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatnibirgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi. Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyliigi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Qo'shma so'zlarning har bir turi hozirgi zamon ingliz tilida qo'llanish darajasi, mahsuldorligi nuqtayi nazaridan tasniflanishi lozim. Umuman olganda qo'shma so'zlar tasnifi ularning tarkibiy va semantik tartibiga oid ma'lum bir muammolar bilan bog'liq. Xususan, ingliz tilidagi qo'shma so'zlarda buni yaqqolroq kuzatish mumkin.

Qo'shma so'zlarni tasniflashdagi turli xil belgi va xususiyatlar ba'zan ularga yana qo'shimcha turdagi qiyinchiliklarni yuklaydi. Bular tilda mavjud bo'lgan analogik xilma-xilliklar bo'lib, ular tillarda qo'shma so'zlarni bir sxema asosida tasniflashga to'sqinlik qiladi.

Semantik jihatdan mustaqilligi nuqtayi nazaridan tilshunoslikda qo'shma so'zlarning hammaga ma'lum ikkita turi bor. Bog'langan va ergashgan aloqa. Unga muvofiq ravishda qo'shma so'zlar ikki guruxga bo'linadi: bog'langan (kopulyativ (ma'no bog'lovchili) yoki additiv) va ergashgan (determinativ) qo'shma so'zlar. Semantik planda bog'langan qo'shma so'zlarning ikkala komponenti ham muhim hisoblanadi. Masalan: fighter bomber, oak-tree, girl-friend, Anglo-American. Bunday turdagi qo'shma so'zni hosil qilayotgan o'zak bitta guruhga ba'zan esa, bitta semantik guruhga mansub bo'ladi. Bog'langan qo'shma so'zlar darajada ko'p emas. ularni uch guruxga bo'lish mumkin:

a) takrorlar, ya'ni bitta so'zni takrorlash orqali hosil bo'ladigan qo'shma so'zlar: goody-goody, hush-hush, pooh-pooh.

b) ikkita formaning qofiyalanishidan hosil bo'ladigan qo'shma so'zlar. Ular bir xil undosh va turli xil unlilardan iborat bo'lishi (chet-chot, zig-zag, sing-song, tip-top), yoki so'z boshidagi undoshlarning o'zgarishi bilan qofiyalanishi mumkin (clap-trap, walkie-talkie, helter-skelter).

Quyida shu turda hosil qilingan neologizmlar berilgan: ticky-tacky
tacky – cheap or inferior material, esp. That are used in building rows of uniform small houses.

Fuzz-buss – (US.sl) – fuss or inconvenience, bustle, commotion.

Ko'pincha bu guruhga mansub bo'lgan so'zlar soxta qo'shma so'zlar deb ataladi. Ba'zi tilshunoslarning fikriga ko'ra ularning komponentlari tushunarsizligi sababli so'z yasashda mahsuldor bo'la olmaydi.

d) uchinchi guruxga mansub bo'lgan obyektiv qo'shma so'zlarning asosi avvalgi ikkita guruxdagi so'zlardan farq qiladi. Ular bitta so'z turkumiga mansub bo'lgan mustaqil qo'llana oluvchi so'zlardan tashkil topadi va o'zagi ko'pincha semantik munosabatlarda aniqlanadi. Ular bir vaqtning o'zida shaxs va predmetni ifodalaydi. Masalan: secretary – stenographer – kotiba (sekretar) va stenografistka, bed – sitting – room (bed sitter) – yotoqxonona va mehmonxonona.

Bu guruxdagi additiv qo'shma so'zlar asosan to'la asoslangan, lekin ularning ishlatilishi darajasi chegaralangan.

Shuni ham aytib o'tish joizki, bog'langan va ergashgan qo'shma so'zlar o'rtasidagi farq ikkilanish, gumonlarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Bu ikki turdagi so'zlar o'rtasida aniq chegara, farq mavjud emas. Ko'p xollarda bitta so'z bog'langan qo'shma so'z ham, ergashgan qo'shma so'z ham hisoblanishi mumkin.

Masalan: woman-doctor so'zini “woman who is at the same doctor” yoki “doctor who happens to be woman” kabi tushunish mumkin. (qiyoslang: mother-geese, clock-tower, fighter-bomber).

XULOSA

Murakkab til birliklari bo'lgan qo'shma so'zlar insonlar tomonidan qo'llaniladigan har qanday tabiiy til tarkibida mavjud. Til uning egasi bo'lgan millatning boyligi bo'lsa, undagi til birliklari millatning o'ziga xos mentalitetini, hayot tarzini, urf-odatlarini, an'nalarini, o'ziga xos qarashlarini, tarixiy va diniy voqeliklarini, bir so'z bilan aytganda, milliylik va madaniyatni o'zida aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma otlar ham bu xususiyatlardan mustasno emas, albatta. Mazkur ikki tildagi qo'shma otlar lug'atlar va badiiy adabiyotlar misolida o'rganildi hamda ushbu izlanish natijasida ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilida ingliz tiliga nisbatan qo'shma otlarning miqdori sezilarli darajada ko'pligi aniqlandi. Shuningdek, o'zbek xalqi o'z nutqida qo'shma otlardan ingliz xalqidan ko'ra ko'proq foydalanadi.

Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham sodda va murakkab tarkibli qo'shma so'zlar mavjud bo'lib, ikki o'zakli qo'shma so'zlar har ikki tilga xos. Lekin murakkab tarkibli ya'ni to'rt va undan ortiq komponentli qo'shma so'z turlari faqat ingliz tiliga xos bo'lib, bunday tarkibli qo'shma so'zlar o'zbek tilidagi qo'shma so'zlar orasida kam uchrashligi aniqlandi.

Xalqning milliyligini aks ettiruvchi lingvokulturemalar qo'shma so'zlarning komponentlari sifatida ularning tarkibida uchraydi hamda, yuqorida ta'kidlanganidek, qo'shma so'zlar o'zida mazkur tilning milliy, diniy, tarixiy tushuncha va voqeliklarini hamda madaniyatini aks ettira olgani sababli ularning o'zi ham lingvokulturemalar hisoblanadi. Tahlillarimiz natijasida o'zbek tilida ifodalanadigan urf-odatlar, marosimlar nomlari ot+fe'l va sifat+fe'l modellari orqali ko'proq hosil qilinishi aniqlandi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi qo'shma so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlari o'zaro chog'ishtirilib o'rganilganda, bir tildagi qo'shma so'zlarning boshqa bir tildagi tarjimalari har doim ham mos kelmasligi o'z isbotini topdi. Shuningdek, ikki millatga tegishli bo'lgan o'zaro muqobil qo'shma so'zlar mavjud bo'lsa-da, ular har doim ham bir-birining o'rniga qo'llanila olmasligi ma'lum bo'ldi. Chunki qo'shma so'zlarning tarkibidagi lingvokulturemalar ularga faqatgina o'sha millatga xos milliylikni aks ettiradi va bu holat uning boshqa bir tildagi muqobilini berish jarayonida qiyinchiliklarni tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda ingliz va o'zbek tillarida semantik, struktur yoki grammatik xususiyatlari o'zaro o'xshash bo'lgan qo'shma otlar ham uchrab turadi, lekin bular ozchilikni tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Blumfield L. Язык. – М.:Прогресс,1968.–С.252].
2. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb. Posobie. – М.: Academia, 2001-208s.
3. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2012.-№5.-В. 3-16.
4. Ahmedova Odinaxon Abdullajon qizi. "Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida". Xorijiy filologiya til adabiyot ta'lim ilmiy–uslubiy jurnali. 2019. -102-104.
5. Томахин Т.Д. Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999;
6. Behzod Xudoyqulov. "Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari" (italyan tilidagi iboralar misolida),2021.